

## TALABA YOSHLARNING PSIXOLOGIK IMMUNITETINI OSHIRISH

**Ashirova Jayron Altiboevna**

O‘zbekiston davlat jismoniy  
tarbiya va sport universiteti psixologi  
E-mail: [ashirovajayron1001@gmail.com](mailto:ashirovajayron1001@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarni yashash tarzida psixologiyaning o‘rni va ularni oilaviy va shaxsiy hayotiga psixologik tayyorlash muammosi bayon qilingan. Oila haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga oid sharq mutafakkirlarining qarashlari va zamonaviy yondashuvlar, shuningdek, oila borasidagi ijtimoiy- psixologik masalalar muhokama qilingan. Talaba yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va buning uchun qator tashkilotlar qanday ishlar olib bormoqda va bu ishlarning ko‘lami yoshlar hayotida qay darajada kerak bo‘lmoqda – bu va bu haqidagi ma’lumotlarni to‘ldirib talaba-yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga jalb etish va ularni davlat mukofotlari, grantlar va start-up loyihalariga ko‘nikmalarini shakllantirish haqida to‘xtalib o‘tdik.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar psixologiyasi, xulq-atvor, dunyoqarash, fikrlar olami, aqliy ko‘rsatkich, ma’naviy tahlil, normative hujjatlar, ma’rifiy tadbirlar, psixologik immunitet, milliy qadriyatlar.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida Vazirlar Mahkamasining “Respublikada psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash va psixologik xizmat tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi joylashtirildi. Hujjat Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazining

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshidagi Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazi negizida ta’limning barcha bosqichlarida psixologik xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar uchun muloqot maydoniga aylanadigan, tegishli davlat idoralari bilan hamkorlikda ish olib boruvchi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi qoshida Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish respublika markazi etib qayta tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanishi mumkin.

Psixologlarnig ma'lumot ko'rsatishicha, xulq-atvorning muhim motivlaridan biri e'tiqod hisoblanadi. Ba'zi manbalarda unga mana bunday ta'rif berilgan: e'tiqod shaxsni o'z qarashlariga, prinsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda qarorga kelishga undaydigan muhim motivlar tizimidir. Boshqa so'z bilan aytganda, e'tiqod shaklida namoyon bo'ladigan ehtiyojlarning mazmuni- bu tabiat, tevarak atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar va ularning muayyan tarzda tushunilish demakdir. Bu bilimlar falsafiy, estetik, tabiiy-ilmiy nuqtai-nazardan tartibga solinsa va ichki uyushgan tizimi tashkil etilsa, u taqdirga shaxsning dunyoqarashi sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

Yoshlarni psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyorlash va faoliyatningsamarali tashkil etilishi bir qancha ijtimoiy muammolarning ijobiy hal etilishigao'z ta'sirini ko'rsatadi:-Jamiyatning ijtimoiy ma'naviy jihatdan rivojlanishini ta'minlaydi;-jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining yuqori bosqichga ko'tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi;-mustahkam oilalarni shakllantirish, ularda sog'lom psixologik muhitni qaror toptirish, oila tarbiyasini samarali tashkil etish, farzandlar tarbiyasida muayyan muvaffaqqiyatlarga erishish, oilaviy mojaro, ajrimlarning oldini olish uchun zamin hozirlaydi.Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyatberilgan. Jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino,Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Rizouddin Ibn Faxriddin kabiallomalar bu masala yo'zasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldiribketganlarki, ular hozirgacha o'z ahamiyatini yuqotmagan. Ular "Nasixatnoma", "Pandnoma", "Xikmatnoma" tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbaalardaqizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlarshakllangan bo'lishi, oila muqaddas, uni avaylab asrash aynan uy bekalarigabog'liq ekanligi xaqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan xodisalar xikoyaqilinadi. "Kaykovus Unsurulmaoni – 63 yoshida o'g'liga atab "Qobusnoma" yozib, unda o'zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 1996 yil 9 sentyabr 1559-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 1996 yil 16 sentyabrdagi 221-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi tashkil etildi. 2016 yilining 5 iyulida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'zbekiston davalat san'at va madaniyat instituti rahbariyati tomonidan o'zaro kelishuv asosida O'zbekiston davalat san'at va madaniyat institutining tashkiliy

tuzilmasini tasdiqlashda “Ma’naviyat va ma’rifat” va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo‘limi” deb nomlana boshlandi.

Aynan shu ko‘lamdagi qator masalalar shu unib kelayotgan yoshlar uchundir. Biz yoshlarni to‘g‘ri yolg‘a solish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda bir qator shu va shunga o‘xshash ishlar rejasini taqdim etdik.

Yurtimizda ham IQ darajasini oshirish bo‘yicha ham ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Bunga yaqqol misol qilib, ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarni ham olsak bo‘ladi. Har bir sohalarda, xususan, qay bir yo‘nalishga qobiliyati bor yoshlar uchun turli imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Jumladan: rassomchilik, san’at, adabiyot, sport kabi. Bundan esa maqsad o‘ziga kelayotgan yosh avlodni iqtidorli, bilimli, keng fikrlaydigan, bir so‘z bilan aytganda yurt kelajagi uchun poydevor yaratish desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ba’zida intellekt bilan kreativlik bitta narsa sifatida qaraladi. Bu tushunchalar bir-biriga bog‘liq tushunchalar hisoblanadi. Har ikkisinin ham o‘z yo‘nalishi va vazifalari mavjud. Bu ikkalasi bir-biriga yaqin tushuncha hisoblanib, buni farqlash lozim. Intellekt orttirilgan tajribalar va olingan bilimlar orqali insonning hayotga moslashishi bo‘lsa, kreativlik esa hayotga moslashishi emas, balki uni o‘zgartirishidir. Kreativlikning asosiy namoyon bo‘luvchi belgisi - bu insonning xayotga moslasha olmasligi hisoblanadi. Shu narsa ham aniqlanganki, ba’zi olimlar insonning kreativlik holatini insonning boshqa insonlardan va tashqi olamdan tanholigi va yolg‘izlanishi deb hisoblaganlar. Buni esa bir qancha tadqiqot va nazariya orqali ochib berishga harakat qiladilar.

### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga, ularning ilm olish va kasb-xunar egasi bo‘lishiga katta e’tibor berilmoqda. Lekin bularning o‘zi yoshlarning kelgusi hayotlarining farovon bo‘lishligi uchun yetarli emas, balki ularga oilaviy hayot saboqlaridan psixologik bilim va tushunchalardan keng va yetarlicha ma’lumot berish davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki sog‘lom psixologik muhit qaror topgan oiladagina barkamol va yurt koriga yaraydigan kelajak avlodni voyaga yetkazish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Jumanazarov Y. Yosh davrlar psixologiyasi. Namangan 2013 y.
2. Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax – 2005.
3. Raxmatullaev M. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. T.– 2001

### **Saytlar:**

1. <file:///C:/Users/user2/Downloads/yoshlarning-dunyoqarashi-va-xulq-atvoriga-tasir-etuvchi-ijtimoiy-psixologik-omillar.pdf>
2. <https://kun.uz/uz/65060082>
3. <file:///C:/Users/user2/Downloads/Bozorova+Ro%E2%80%98zigul+.pdf>